

INGLIZ TILIDAGI AYRIM FRAZEOLOGIZMLARNING ETIMOLOGIK
TAHLILI, ULARNING O‘ZBEK TILIDAGI AYRIM EKVIVALENTLARI

Ibrohimova Diyoraxon

Anontatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilidagi ayrim frazalar, ularning ma’nalari, etimologiyasi va ba’zi iboralarning o‘zbek tilidagi ekvivalentlari haqida tahlil qilinadi.

Frazeologizmlar ikki yoki undan ortiq ajralmas va boshqa so‘zni ham qo‘shib bo‘lmas turg‘un birikmalardir. Shuning uchun ularni tarjima qilish, ekvivalentlarini topish biroz murakkab ish, biroq shunga qaramay, juda qiziqarlidir.

Kalit so‘zlar: fraza, etimologiya, tarjima nazariyasi, ekvivalent, denotativ, konnotativ, qora yumor

Аннотация: В данной статье анализируются некоторые английские фразы и их значения, этимология, а также узбекские эквиваленты некоторых фраз.

Фраzeологизмы – это два и более сложных слов, они представляют собой неразрывные и устойчивые соединения, которые нельзя присоединить к другому слову. Вот почему их так интересно переводить, даже если найти эквиваленты немного сложно.

Ключевые слова: словосочетание, этимология, теория перевода, эквивалент, денотативный, коннотативный, черный юмор.

Annotation: This article analyzes some English phrases and their meanings, etymology, and Uzbek equivalents of some phrases.

Phraseologisms are two or more compounds, they are inseparable and stable compounds that cannot be added to another word. That is why it is so much fun to translate them, even if it's a bit complicated to find equivalents.

Keywords: phrase, etymology, translation theory, equivalent, denotative, connotative, dark humor

KIRISH

Frazeologik birliklar qaysi shaklda bo‘lishidan qat’iy nazar, tilda o‘ziga xos normativlikka ega bo‘ladi. Shu bois, iboralarni bir tildan ikkinchi tilga o‘tishi qiyinlashadi. Frazeologizmlar ham ikki yoki undan ortiq so‘zlardan iborat bo‘lgani uchun ularni shakl jihatidan tilda so‘z birikmasi bilan farqlash oson kechmaydi. Hattoki shunday so‘z birikmalari borki, ularni iboralardan kontekst orqali farqlanadi, xolos. Bu esa so‘z birikmasining denotativ (o‘z ma’no), frazeologizmlarning konnotativ (ko‘chma ma’no) xususiyatlariga bog‘liqdir. [3] Frazeologizmlar, asosan ,adabiy tilga badiiy asarlar orqali kirib keladi.



MUHOKAMA VA NATIJALAR

Har bir tildagi frazeologizmlarning ma’nolari, etimologiyasi o’sha tilning, mamlakatning tarixi, madaniyati, geografik joylashuvi va dunyoqarashi bilan o’zaro bog’liqdir. Bularni quyidagi iboralarda ko’radigan bo’lsak, masalan, ingliz tilidagi Pardon my French iborasi o’zbek tilida fransuz tilim uchun kechirasiz degan ma’noni ifodalaydi. Ya’ni bu iboraning etimologiyasi XVIII asrga borib taqaladi. Bu davrda Yevropada fransuz madaniyati juda kuchayib, fransuz tili ham ommalashib rasmiy tilga aylanib boradi.[1] Fransuz tilini endigina o’rganayotgan inglizlar esa fransuz tilida xato gapirib qo’yishi mumkinligini ta’kidlab, so’ngra fransuz tilida gapirishgan. Ammo keyinchalik Inglizlar bu iborani hazilomuz tarzda: " Hozir senga fransuz tilida shunday bir madaniyatli gap aytaman," deb so’kish ohangidagi gaplar aytishgan. Lekin o’zbek tilida bunday ibora yo’q, chunki fransuz madaniyati bizgacha yetib kelmagan.

Silver lining yoki Every cloud has a silver lining ya’ni kumush gardish yoki har bulutning kumush chiziqlari bor degani. Buning frazeologizmdagi ma’nosi umid uchqunlaridir. Nega bunday desak, Britaniya yarim orol bo’lganligi sabab, tez yomg’ir yog’ib turadi va ko’pincha havo bulutli bo’ladi. E’tibor beradigan bo’lsak, bulutlar orasidan quyosh chiqishi paytida bulut chekkalari kumush chiziqqa o’xshab aks etadi va buni umid uchqunlariga qiyoslanadi, ya’ni " Mana, sovuq havolar tugab, quyosh chiqyapti," deb Qiyinchiliklar ortidan yorug’ kunlar bordir " deyiladi.[2] Bu esa o’zbek tilidagi Oynning o’n beshi yorug’, o’n beshi qorong’udir iborasini eslatadi va buni ekvivalent sifatida deb bilsak bo’ladi, chunki o’zbek frazeologizmida ham bu ibora " qiyinchiliklardan so’ng yorug’ kunlar bordir" degan ma’noni ifodalaydi.[3]. To kick the bucket — chelakni tepish. Bu ibora birinchi marta 1785- yilgi "Qo’pol tillar lug’ati" kitobida qayd etilgan. (Francis Grose tomonidan yozilgan). Ma’nosi vafot etmoq deganidir. Bu iborada Inglizlarning qiziq madaniyatlarini ko’rishimiz mumkin. Inglizlar qora yumorni yoqtirib va bemalol o’zlarining nutqlarida ya’ni, asosan, so’zlashuv uslubida keng foydalanishadi. Bu frazaning etimologiyasi quydagicha: Aslida bu ibora o’z - o’zini osib, joniga qasd qilgan odamga nisbatan aytiladi, ya’ni chelakni ustiga chiqib, o’zini osib va chelakni tepib osiladi. Bu esa juda daxshatlidir. Buni esa keyinchalik oddiygina vafot etgan odamga nisbatan qo’llyadilar. Va hozirgi kunda xuddi shu iboraning yana bir versiyasi The bucket list — chelak ro’yxati. Bunda esa orzular ro’yxati, istaklar ro’yxati ma’nosida. The Bucket List — 2007-yilda Rob Reiner rejissyor va prodyuserlik qilgan, Jastin Zaxxem tomonidan yozilgan hamda Jek Nikolson va Morgan Friman bosh rollarni ijro etgan komediya-drama filmi. Ular ikkisi juda yaqin do’st bo’lishib, asosiy syujet ikki o’ta og’ir kasal bo’lgan odamning yo’lda ketayotgani, ular “chelakni tepishdan”(ya’ni bu yerda yuqoridagi To kick the bucket ma’nosida o’lishlaridan oldin) oldin qilishlari kerak bo’lgan istaklar ro’yxatini tuzishdan iborat. Va shu filmdan so’ng bu ibora juda ommalashib boradi va frazeologizm sifatida qo’llanila boshlaydi. Masalan: In my bucket list, There is parachuting with my friend. To go pear - shaped — nokka o’xshab qolish ya’ni chappasiga ketish ma’nosida. Etimologiyasiga ko’ra,



1940-yillarda Britaniya havo kuchlari ideal doira shaklida uchishni amalga oshirmoqchi bo‘lishgan, lekin negadir nok shaklida bo‘lib qolavergan.[4] Bundan tashqari, Ikkinchi jahon urushi yillarida Britaniyada havo sharlar yasalgan. Ammo bu ham o‘zlari xohlagan shaklda bo‘lmay, balki nokka o‘xshab qolavergan.[1], [4] Buni o‘zbek frazeologizmida Qovun tushirdi iborasida ko‘rishimiz mumkin. [3] Keyingi ingliz iborasi inglizlarning qora yumorni yoqtirishi va bemalol qonli holatlarni yumorga aylantirishlari haqida ma’lumot beradi. It costs an arm and a leg — narxi bitta qo‘l, bitta oyoqqa tushdi degani. Bu juda ham qimmat narsaga nisbatan qo‘llaniladi. Ayrim tilshunoslarning fikriga ko‘ra, ingliz askarlari urushga ketib, ana shu urushdan biri qo‘lsiz, biri bitta oyoqsiz qaytishgan va urush askarlar uchun bitta qo‘l yoki bitta oyoqqa to‘g‘ri kelgan. O‘zbek frazeologizmida ham shunga o‘xshash ibora mavjud —otning kallasidek - judayam qimmat degani ya’ni bitta otning kallasi qolgan xonaki hayvonlarga nisbatan kattaroq va og‘ir bo‘lgan, shu uchun bu iboraga aylangan. [3] Keyingi ingliz tilidagi fraza The apple never falls far from the tree — olma daraxtidan uzoqqa tushmaydi. Bu esa o‘zbek frazeologizmidagi "olma olmani tagiga tushadi" iborasi bilan deyarli bir xil. [3]

Xulosa qilib aytganda, tahlil qilinayotgan bu tillardagi frazeologik birliklar o‘rtasida har tomonlama o‘rganilish obyekti yotadi. Frazeologizmning ekvivalentlarini ayrim tillar doirasida o‘rganish tarjima nazariyasini oshirib, chet tilini o‘rganishga xizmat qilishi mumkin deb o‘ylaymiz. Bundan tashqari frazalarni qiyoslab o‘rganish ulardan nutqda aniq, ravon foydalanishga hamda ularni eslab qolishga samarali natija beradi, deb umid qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Yetti_yillik_urush
2. Pixel.com. photograph by Martin Jones
<https://images.app.goo.gl/GPhJtigAT8PzBq7h6>
3. Sh. Rahmatullayev. "O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati." "O‘qituvchi " nashriyoti, T.: - 1978
4. <http://www.ziyonet.uz> – adabiyotlarning elektron variantlari.
5. <http://www.allpravo.ru> – adabiyotlarning elektron variantlari

